

SMTI direktori Eldor Aripov BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida nutq so‘zladi



Joriy yilning 17-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Amerika Qo‘shma Shtatlariga tashrifi doirasida BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida taniqli siyosatshunos, senator va O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqovning "Yangi O‘zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo‘li" kitobining taqdimoti o‘tkazildi.

Tadbirda 100 ga yaqin kishi – BMT rahbariyati, diplomatik missiyalar rahbarlari, shuningdek, tahliliy doiralar, fuqarolik jamiyati hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Taqdimotda asosiy e‘tibor Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va bosqichlariga qaratildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tizimli va kompleks yangilashga qaratilgan uzoq muddatli, puxta ishlangan strategiya ekani ta’kidlandi.

Ushbu strategiyaning amaliy ijrosiga bag‘ishlangan taqdimotda SMTI direktori Eldor Aripov so‘zga chiqdi. Uning ta’kidlashicha, "Zamonaviy O‘zbekiston o‘n yil avvalgidek emas, balki bugun yaratilayotgan - samarali faoliyat yuritayotgan institutlar, savdo va hamkorlik uchun ochiq chegaralar, ta’lim olish imkoniyatining kengligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni manzilli qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirish bilan tavsiflanadi."




"O'zbekistondagi o'zgarishlar butun Markaziy Osiyoning transformatsiyasiga kuchli turtki berdi. Ochiq va jadal rivojlanayotgan O'zbekiston mintaqadagi muloqot va hamkorlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda", deya ta'kidladi SMTI direktori.

Shu bilan birga, ekspertning qayd etishicha, mamlakatning faol tashqi siyosati mintaqaviy tashabbuslar bilan cheklanib qolmaydi. Mamlakat BMT faoliyatiga konstruktiv hissa qo'shish, tinchlik va barqaror rivojlanishni mustahkamlashga ko'maklashish, shuningdek, global boshqaruv tizimining adolatlilik, samaradorligi va inklyuzivligini oshirishga qaratilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashga intiladi. Shunday yondashuvni qo'llash orqali O'zbekiston o'zini hamkorlik, muloqot va jamoaviy mas'uliyat tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydigan ishonchli xalqaro hamkor sifatida namoyon etdi.

Taqdimot doirasida mazmunli muhokamalar bo'lib o'tdi, unda BMT rahbariyati va diplomatik missiyalar rahbarlari respublikaning milliy islohotchilik kun tartibi BMT maqsad va vazifalariga mos kelishini e'tirof etdilar. O'zbekiston Prezidentining siyosiy yo'li Tashkilotning inson huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligi tamoyillarini ilgari surish, barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolar ishtirokini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlariga hamohangdir.



BMT Bosh kotibi yordamchisi M.Yencha o'z nutqida O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar siyosiy jasorat, strategik puxtalik va ijtimoiy yo'naltirilganlikni o'zida mujassam etgan transformatsiya namunasi ekanini ta'kidladi. U O'zbekiston tajribasining o'ziga xosligi, uning tizimli ekanligiga e'tibor qaratib, o'zgarishlar bir vaqtning o'zida barcha asosiy sohalarda - davlat boshqaruvi va adliya tizimidan tortib, ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamlashtirishgacha amalga oshirilayotganini alohida qayd etdi.



Umuman olganda, o'tkazilgan tadbir O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilayotgani va qat'iy qo'llab-quvvatlanayotganini tasdiqladi.